



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

# PEDIATR

№ 5-6 (944-945)  
18-mart, shanba  
2023-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI  
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil  
mardan chiqqa  
boshlagan

## AYOL – ONA, VATAN, OILA TIMSOLI

Ayol-borliq ko‘zgusi. U olamni charog‘on etadi, chunki uning niyati pok, o‘zi pok. Onalarni, ayol zotini e’zozlash el-yurtimiz uchun azal-azaldan ezgu qadriyat bo‘lib kelgan. Biz mehr-muhabbat va odamiylikning ilk saboqlarini aziz onalarimizdan, ularning beshigimiz uzra parvona bo‘lib aytgan alla ohanglaridan olamiz.

Inson hayoti va jamiyat rivojida muqaddas Ona zoti, munis ayol-larimizning beqiyos o‘rnini oddiy so‘zlar bilan ifoda etish nihoyatda qiyin. Bu yorug‘ dunyoni quyosh-siz, yeri osmonsiz tasavvur etib bo‘limganidek, hayotimizni ham mo‘tabar onalarimiz, mehribon ayollarimizdan ayri holda tasavvur etolmaymiz.

Sizlar biz uchun avvalo muqaddas ona, aziz Vatan, oila timsoli, bitmas-tuganmas mehr, ezgulik va kuch-g‘ayrat manbai-dirsiz. Bu azaliy haqiqatni ToshPTI hayotida, ta’lim-tarbiya jarayonida ham chuqur his etmoqdamiz.

Sizlar – fidoyi shifokorlar, mehribon hamshiralari ko‘rsatgan jasorat va matonat tufayli ming-minglab bemorlar shifo topib, hayot quvonchini yana his etmoqda. Ming-minglab bemor bolajonlarimiz sog‘lig‘i tiklanib sog‘lom hayot tarziga qaytarilmoqda. Sizlarning ustoz sifatidagi faoliyatning evaziga minglab talaba yoshlalarimiz yuksak ta’lim va tarbiya jarayonidan bahramand bo‘lmoqda. Tibbiyot sohasidagi fidokorona mehnatingiz tufayli insti-

tutimizning salohiyati, ta’lim sifati, xalqaro obro‘-e’tibori tobora ortib bormoqda.

Bugun yurtimizda barcha sohalarda marra juda katta olinyapti, qancha-qancha ulkan dasturlar, reja va loyihalar amalga oshirilyapti. Ular birinchi navbatda onalarimiz, opa-singillarimiz, aziz farzandlarimizning hayot va mehnat sharoitini, ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Bugungi kunda yurtimizda azizu mukarram ayollarimizning barcha soha va tarmoqlardagi o‘rni va ta’siri yanada ortib bormoqda. Buning tasdig‘ini respublikamizda mehnat bilan band aholining 45 foizini, xususan institutimizda ham ishchi-xodimlarning 50 foizdan ortig‘ini xotin-qizlar tashkil etayotganida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Yurtimizda ayollar orasida taniqli davlat va jamoat arboblari, jumladan, o‘nlab senator va deputatlar, vazir va hokimlar, O‘zbekiston Qahramonlari, akademiklar, professorlar, O‘zbekiston xalq shoirlari, Xalq o‘qituvchilari, Xalq artistlari, nodavlat tashkilotlarning faol vakillari borligi barchamizni quvontiradi. Xususan, institutimiz jamoasidagi xotin-qizlar orasidagi yuqori ilmiy salohiyat va unvonga ega, davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan professor-o‘qituvchilar, talaba yoshlar aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashda samarali mehnat qilib kelayotgani

hamda jamiyatda o‘z o‘rinlarini topayotgani bilan faxrlanamiz. Jumladan, 2023-yil Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar orasida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti 420-guruh talabasi Isomiddinova Go‘zal Zaxriddin qizi ham bor. Qizimizga, jamoaga ushbu yuksak mukofot muborak bo‘lsin!

Biz yurtimizdagagi har bir ayol timsolda, avvalo buyuk zot – Ona siyosini ko‘ramiz. Shu bois “Avvalo onangizga va yana bir bor onangizga yaxshilik qiling”, degan muborak hadisga amal qilib, mo‘tabar onalarimiz, qadrali opa-singillarimiz, dilbar qizlarimizga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni insoniy burchimiz, deb bilamiz. Hazrat Mir Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, Sizlarning oldingizdagagi bu qarzimiz haqqini, ming xazina bilan ham ado etib bo‘lmaydi. Har doim e’zozu e’tiborimizdasiz.

Aziz va muhtarama opa-singillar! Sizlarni 8-mart bayrami bilan qutlab, barchangizga sihat-salomatlilik, oilalariningizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman. Doimo yaqinlariningiz, farzand va nabiralariningiz, shogirdlariningiz, el-yurtimiz ardog‘ida bo‘lib yurish nasib etsin! Umringiz uzoq, baxtingiz ziyoda bo‘lsin!

**B. T. Daminov,**  
**Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori**

## INSONGA E'TIBOR – TARAQQIYOT GAROVI



**B. T. DAMINOV,  
ToshPTI rektori,  
Xalq deputatlari Toshkent  
shahar kengashi deputati**

Konstitutsiyamizda belgilab olinayotgan ezgu maqsadlarni ro'yogga chiqarish, yurtimizdagи tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do'stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish, yangi uy-joylar barpo etish, ish o'rinalarini ko'paytirish bo'yicha katta-katta vazifalar dasturlarda o'zining aniq ifodasini topmoqda. Xususan, 2023-yil 28-fevalda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-27-son Farmoni imzolandi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Mu-rojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot derajasini yanada yuksaltirish, ta'lif sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kam-

bag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

Xalqimizning og'irini yengil qilish, aholi uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish va ularning xara-jatlarini tejash maqsadida, 2023-yil 1-iyuldan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlarida "Aholi va tadbirdorlarga servis sifatini oshirish" chora-tadbirlari belgilanadi. Hujjat bilan, davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni 300 taga, Yagona portal orqali ko'rsatiladigan xizmatlar soni esa 570 taga yetkaziladi.

Aholining ijtimoiy himoya-ga muhtoj qatlamlari (nogironligi bo'lganlar, og'ir bemorlar, keksalar va boshqalar)ga migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi davlat xizmatlari doimiy ya-shash yoki vaqtincha turgan joyiga chiqish orqali ko'rsatilgan xizmat uchun qo'shimcha to'lov undirilmaydi. 2023-yil 1-apreldan boshlab nogironlik idolararo elektron ma'lumotlar almashinuvni asosida nogironlik belgilari aniq ko'rinib turgan, anatomik nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, noxush klinik prognozga ega kasalliklar va aso-ratlarda fuqarolarning ishtirokisiz belgilanadi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va aholiga yanada qulaylik yaratish uchun ham ustuvor yo'naliшhlar, maqsadlar va vazifalar belgilab berilgan. Amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yaqinlashtirish va fuqarolarni sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, shuningdek, bemorlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida 2023-yilda 30 ta oilaviy poliklinika, 110 ta oilaviy shifokor punkti va 520 tagacha ix-cham mahalla tibbiyot punktlarini tashkil etiladi.

18–40 yoshli 12,6 million nafar aholi profilaktik ko'rikdan o'tkazilib, 40 yosh va undan katta yosh-dagi surunkali kasalligi bo'lmagan 6,3 million nafar aholi yurak qon-tomir kasalliklari va qandli diabet, 3 million nafar aholi onkologik ka-salliklarni erta aniqlash bo'yicha skrinинг tekshiruvlaridan o'tkazi-ladi.

Spinal mushak atrofiyasi bilan kasallangan 112 nafar bola dori vositalari bilan ta'minlanadi. 250 nafardan ortiq zaif eshituvchi bolada koxlear implantatsiya operatsiyalarini o'tkaziladi, shuningdek, bunday operatsiyalar o'tkazilgan 132 nafar bolada nutq protses-sorlarini almashtirish choralar ko'riladi.

Davlat dasturiga ko'ra, 2023-yil 1-iyuldan boshlab Toshkent shahrida bosqichma-bosqich davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy etiladi. 2023-yil yakuniga qadar nogironligi bo'lgan shaxslarni ambulator va statsionar sharoitda bepul tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya choralar bilan qamrab olish ko'لامи 30 ming nafarga yetkazi-

ladi. 2023-yil 1-iyuldan boshlab vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari va boshqa tibbiy ma'lumotnomalarini berish bosqichma-bosqich elektron shaklga o'tkaziladi.

Aholi orasida yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faollik darajasini oshirish maqsadida ko'plab chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan "To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi" umummilliy harakati yo'lga qo'yilib, aholiga smartfon va mobil ilovalar yordamida o'z sog'lig'i va ovqatlanishini nazorat qilishni o'rgatish, to'g'ri ovqatlanish bo'yicha mobil ilova yaratiladi.

Davlat dasturida Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtiruvchi maqsadlar ham keng ko'lamda belgilab qo'yilgan. Bularda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klassterlari tashkil etilib, Davlat-xususiy sheriklik asosida 2023-yil oktyabr Toshkent viloyati Nurafshon shahrida zamonaviy ko'ptarmoqli tibbiyot shaharchasi barpo etiladi.

Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'ortalash amaliyotini joriy qilish maqsadida 2023-yil oktyabrdan Toshkent shahrida Endokrinologiya markazi va uning 600 o'rinni ko'ptarmoqli klinikasini foydalanishga topshirish choralarini ko'riladi. Koreya bilan hamkorlikda umumiyligi qiymati 125 mln dollarlik 4 darajadagi 300 o'rinni kattalar uchun zamonaviy ko'p tarmoqli tibbiyot markazini barpo etiladi, Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish ishlari davom ettiriladi.

Tibbiy asbob-uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish maqsadida Respublika ixtisoslashgan Kardiologiya ilmiy-amaliy markazi, Respublika ixti-

soslashgan Urologiya ilmiy-amaliy markazi, shoshilinch tez yordam ilmiy markazi va uning filiallari tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

Reproduktiv yoshdag'i va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish maqsadida 2023-yil martdan 46 ta tumanlararo perinatal markazlarni tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlanib, Onalik va bolalikni muhofaza qilish kuchaytiriladi. Respublikada boshqariluvchi yuqumli kasalliklar bo'yicha epidemiologik barqarorlikni ta'minlash hamda mamlakat qo'lga kiritgan mavjud elyuminatsiya sertifikatlarini saqlab qolish maqsadida profilaktik emlash tadbirlari tashkil etilib, onalar va go'daklar o'limi holatlarining oldini olish va ayollar orasida reproduktiv organlar xavfli o'sma kasalliklarini erta aniqlash choralarini ko'riladi.

Bundan tashqari, birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, sohaga ajratiladigan mablag'larni oshirish tibbiy xizmatlardagi xususiy sektorning ulushini 25 foizga yetkazish, mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalarining miqdorini 80 foizga yetkazish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xalqaro maqomga ega laboratoriyalarni tashkil etish hamda hududlarda birlamchi tibbiy xizmatni "bir qadam" tamoyili asosida tashkil etish kabi muhim ahamiyatga ega maqsadlar doirasida ham salmoqli ishlarni amalga oshiriladi.

Malakali shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish maqsadida 2023-yil iyuldan davolash-profilaktika muassasalarida xodimlar uchun ularning ish samaradorlik ko'rsatkichlari ga qarab rag'batlanirish amaliyoti joriy etilib, erishilgan ijobji natijalar bo'yicha eng maqbul bo'lgan baholash tizimi tanlab olib, boshqa tibbiyot muassasalariga joriy etiladi hamda

xodimlarni ularning ish samaradorligi ko'rsatkichlari qarab rag'batlanirish tartibi belgilanadi.

Davlat dasturining ijrosimi ta'minlash maqsadida ToshPTIda 2023-yil rivojlantirish ko'rsatkichlari bo'yicha dasturida 12 ta yo'nalish bo'yicha 133 ta chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jumlahdan, tashkiliy boshqaruv ko'rsatkichlarni takomillashtirish, moliyaviy ko'rsatkichlarni oshirish, akademik, o'quv-uslubiy ko'rsatkichlarni yaxshilash, ta'lim sifatining miqdoriy, sifat va reyting ko'rsatkichlarini oshirish, ichki nazorat va monitoring ko'rsatkichlarni yaxshilash, ilmiy va innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlarni oshirish, xalqaro hamkorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, talabalarni ishga joylashtirish va karera markazi faoliyatini rivojlantirish, yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat faoliyati samaradorligini oshirish, moddiy-texnik bazani yanda yaxshilash, davolash ishlarini kengaytirish, raqamlashtirish – SMART UNIVERSITY 3.0 kontsepsiyasini amalga oshirish kabi yo'nalishlarda muhim vazifalar va amalga oshirish mexanizmlari belgilab olindi. Xusan, institutimiz markaziyligi ilmiy-tadqiqot labaratoriysi ham zamonaviy laborotoriya uskunalarini bilan jihozlanadi. 2023-yilda quyidagi uskunalar sotib olinadi: 1 – Nafelometr PA-50, Analizator mochi "CYANStrip Mini", Termostat CLO incubator – labaratoriya tahlillarini o'tkazish uchun 30 min, 2 – TYPE 100 TI ROTOR – Hujayra organoidlarini ajratib olish uchun 200 mln, 3 – Avtomatik Immunoxemilyuminestsent analizator Maglumi 800 (IXLA) uchun 250 mln so'm ajratiladi.

Bularning barchasi inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish hamda adolatlilik timoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar orqali xalqimiz uchun muhim va keng ko'lamli imkoniyatlar yaratilib, Yangi O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladi.

## AYOL – OILA VA JAMIYAT USTUNI



Institutimizda 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan o'tkazilgan tadbir 6-mart kuni majlislar zalida bo'lib o'tdi.

Uni Institutimizning davolash ishlari bo'yicha prorektori A.A.Djalilov tabrik bilan boshlab berdilar: "Barcha professor-o'qituvchilar, xodimlar, opa-singillarimiz, talaba-qizlarimizni ezzulik va go'zallik bayrami 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan institut rahbariyati nomidan samimiy muborakbod etaman!"

Ayolning nafosati va nazokati, vafo va sadoqati, aql-zakovati va fidoyiligi asrlar mobaynida yer yuzida hayot davomiyligi va aba-

diyligiga asos bo'lib keladi. Shu bois ham dunyodagi eng buyuk san'at asarlari, qo'shiq va qasidalar, me'moriy obidalar ayollar sha'niga bag'ishlangandir", - dedilar ular.

Haqiqadan ham, oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat hisoblangan va shunday bo'lib qoladi. Chunki ayollar bilan hayotimiz go'zal va mazmunli, xonadonlari-miz obod va nurafshondir.

Vatanimiz taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o'rinni va mavqega ega.

Ayollarimiz mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi barcha sohalarda, xususan, davlat boshqaruvi va vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirdorlik, fermerlik, sog'liqni saqlash, ta'lim, ma'rifat, madaniyat va boshqa sohalarda samarali mehnat qilishmoqda.

Tadbirda xodimlar kasaba qo'mitasi raisi A.M.Mannonov ayolning tengsiz latofat va nafosat sohibasi, ezzulik va fidoyilik ramzi, xonadonlarimizning fayzu farishtasi ekani haqida tariximizda ulug' mutafakkirlar, shoir va allomalar qancha-qancha dil so'zlarini bayon etganlarini aytdilar.

Bayramda institutning havaskor qizlari tomonidan jonli ijroda duotor kuylari yangradi.

O'zbekiston san'at va madaniyat instituti talabasi Komila Farxodova o'zining kuy-qo'shiqlari bilan xotin-qizlarni raqsga chorladi. Institutning 150 dan ortiq faol ayol professor-o'qituvchilari va xodimlariga institut tomonidan ajratilgan bayram sovg'alari tantanali ravishda topshirildi.

Bayram tadbirining badiiy qismi institut foyesida kuy-qo'shiqlar sadosida davom etdi.

*A. Xudoyberdiyev*

## AYOLLAR UCHUN SEMINAR-TRENUNG



Bugungi kunda mamlakatimizda, ayollarga qaratilayotgan e'tibor yuqori darajaga ko'tarilmogda. Shunday e'tiroflardan biri 15-mart kuni Toshkent pediatriya tibbiyot

instituti Xotin-qizlar maslahat ken-gashi tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" dasturi asosida, "Ayol qalbi qadrli(mi)" shiori ostida "Ayollarda onkologik kasal-

liklarni tashxislashda zamonaviy yondashuvlar" mavzusida soha mutaxassislari ishtirokida tashkil-lashtirilgan seminar-treningidir. Mazkur tadbirda Yunusobod tumani Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi, hokim o'rinosi D.M.Muxsimova, mammolog, umumiy jarroh D.T.Mirrahimova, Bolalar akusherligi va ginekologiyasi kafedrasini o'qituvchisi K.Y.Nazrova ishtirokida institutning ayol professor-o'qituvchilari, tyutorlar, xodimlar va talaba-qizlari bilan uchrashuv o'tkazildi. Tadbir davomida mutaxassislar qatnashchilarni qiziqtirgan barcha savollarga javob berdi. Uchrashuv yakunida "Maripharm" kompaniyasi tomonidan mahorat darsi ham namoyish etildi.

*D.Usta-Azizova*

## “ZAKOVAT” O‘YINLARI

Yunusobod tumani 273-maktabda “ZAKOVAT” intellektual o‘yinin final bosqichi bo‘lib o‘tdi. Toshkent shahar deputatlar kengashi “Adolat” partiyasi deputati Daminov B.T. hamda yordamchilari, “Bobodehqon” MFY yoshlari yetakchisi Dilfuzza Akbarova va “O‘zbekiston Mustaqilligi” MFY yoshlari yetakchisi Qahhor Sattorov birgalikda bellashuv g‘oliblarini esdalik sovg‘alar bilan taqdirlashdi. So‘nggi natijalarga ko‘ra 9-B sinf jamoasi 1-o‘rinni, 8-A sinf jamoasi 2-o‘rinni, 10-V sinf jamoasi 3-o‘rinni egalladilar.

2-mart sanasida esa Toshkent pediatriya tibbiyat institutining talabalari o‘rtasida ham institut bosqichi doirasida navbatdagi 7-tur o‘yini o‘tkazildi. Ushbu yettingchi tur o‘yinda institut talabalari o‘zaro



bellashdilar. Qizg‘in va murosasiz kechgan o‘yinda 21 ta jamoa qatnashib, o‘z bilimlari va aql-zakovatini ishga solib savollarga javob berdilar. “Zakovat” intellektual o‘yinin yettingchi turi natijalariga ko‘ra “Cosmos”, “Spontan”, “Creative” jamoalari yetakchilikni qo‘lga kiritib ushbu o‘yinda

eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishdi. Shu bilan bir qatorda, haftaning har payshanba kuni institutimizda “Zakovat” intellektual o‘yinin joriy mavsumdagi o‘yinlari o‘tkazilishi davom etadi. Qizg‘in bahsda qatnashuvchi barcha jamoa va killariga omad tilaymiz.

*N.Abidov*

## TIBBIYOT RIVOJI SIFATLI TA’LIMDA

2023-yilning “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nomlanishi, tibbiyat sohasi vakillariga anchagina mas’uliyat yuklaydi. Shifokorlar mutaxassisliklari bo‘yicha yanidan-yangi ma’lumotlarni olishlari, ko‘proq tarjiba orttirishlari, bemorlarning tez fursatda davo topishlariga hamda kasalliklarning oldi olinishiga sabab bo‘ladi. ToshPTIda professor-o‘qituvchilarning qator o‘quv-seminarlarida, chet davlatlardagi malaka oshirishlarda qatnashishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan. Shu kungacha yurtimizda xorijdan kelgan ko‘plab tibbiyat soha-

si vakillari ishtirokida, tajriba almashinuvlari va mahorat darslari amalga oshirilmoqda. Bunga 11-fevral kuni institutimizning akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi kafedrasida jahondagi taniqli mutaxassis, Koreya Katolik universiteti, Avliyo Vinsent klinikasi kafedrası mudiri, professor Ju - Xi Yun o‘tkazgan amaliyot darsini namuna qilishimiz mumkin. Endokrinologiya, bolalar endikrinologiyasi kafedrası assistenti Jahongir To‘lanboyev mart oyida Rossiya Federatsiyaning Sankt-Peterburg shahridagi F.I. Inozemtsev tibbiyat ta’limi

akademiyasida Ultratovush diagnostining dolzarb masalalari bo‘yicha bir oylik malaka oshirishda bo‘ldi. Bu oliy dargoh tibbiyat xodimlarining tajribasini oshirish uchun yetakchi muassasa hisoblanadi.

O‘quv yurtimizda shunday imkoniyatlarning mavjudligi barcha xodimlarimizning bilim darajasi tobora oshishiga, bu esa, o‘z navbatida institutda ta’lim olayotgan har bir talaba, magistr hamda ordinatorlarining soha yuzasidan juda katta ko‘nikmaga ega bo‘lishlariga zamin yaratadi.

*Hasanxo‘ja Abidov*

## БУДЕМ ДОСТОЙНЫ ВЕЛИКИХ ПРЕДКОВ



Я родилась в городе Чирчик. В 2019 окончила среднюю школу № 9 году и в том же году поступила в ТашПМИ.

Тому, что я стала студенткой Ташкентского Педиатрического медицинского института, я обязана прежде всего родителям. Они с самого раннего возраста создали нам – детям, все условия и возможность для развития нашего образования. Книги, тетради и другие школьные принадлежности, это всё у нас было всегда. Нас в семье трое детей. Мама – врач и бабушка так же была врачом. Видимо мне передалось по генам стремление изучать природу болезней. Я благодарна своим родителям - трудоголикам за то, что сейчас нахожусь в рядах студентов, в среде деятелей науки медицинского образования, совершенствующиеся над изучением болезней и их лечения.

Теперь о том, почему я решила стать врачом... С самого раннего детства, мы с сестрёнкой часто играли в больничку, т.е. делали уколы куклам, мерили им температуру, перевязывали им ручки или ножки, и играючи ставили диагноз. Это были известные всем болезни как грипп, головная боль или перелом ноги, руки, и также условно мы их лечили. Нам это занятие очень нравилось, а мне оно доставляло особое удовольствие. Исполнение человека от недуга было для меня нечто недосягаемое, оттого на протяжении всей своей учёбы в школе я думала, что посвящу себя только медицине. Чтобы осуществить свою мечту я занималась усиленно, с жадностью осваивая все темы из

анатомии, физиологии и биологии, с большой ответственностью подходила к выполнению домашних заданий. С интересом и со всей серьезностью относилась к проводимым лабораторным опытам на уроках по химии и биологии. Меня увлекла и заинтересовала анатомия человека. Так хотелось побольше узнать как устроен человеческий организм, его система, форма, развитие и т.д. Чтобы лучше познать мир химии и биологии я принимала активное участие во всех школьных, городских, областных и Республиканских конкурсах и олимпиадах. И сейчас уже будучи студенткой института, я полностью посвящаю себя изучению болезней и их лечению. Так же меня влечёт область фармакологии. Как и в школе активно участвую и в вузовских мероприятиях, но уже в более серьезных конкурсах, диспутах, научных конференциях. Например, это прошедшая в 2022 году международная олимпиада по Фармакологии, организованная казахским государственным медицинским институтом имени Асфандиярова. На данный момент я выпустила более 50 статей и тезисов, которые были опубликованы в международных журналах и сборниках.

Так же в 2022 году я выиграла международный конкурс «Лучший студент СНГ»

Восток – колыбель многих учёных по разным направлениям науки. Это астрология, математика, а так же медицина. Мы гордимся такими учёными и мыслителями как Абу Райхан Бируни, Аль Хоразмий, Мирзо Улугбек, а так же Абу Али ибн Сино. Их работами и канонами пользовались и пользуются учёные всего мира. Мы же наследники наших великих предков, должны так же осваивать все тонкости науки во всех ее сферах, т.е. мы должны быть достойными их.

Правительство нашей страны заботится о нас. Девушкам и женщинам дана всесторонняя возможность совершенствования в разных областях науки, в т.ч. и в медицине.

Меня очень радует, что моё обучение проходит когда наша медицина поднимается на новый уровень, т.е. она как и время не стоит на месте. В стране молодым всецело открывается дорога к повышению знаний, освоению новшеств не только в науке, но

и в производстве, в частности фармакологии.

Много новых методов исследований и диагностики появились в Республике, например скрининг-тесты для беременных с целью выявления ранних генетических заболеваний. Большое внимание уделяется детству в плане профилактики вирусных заболеваний, в страну завозятся вакцины и включаются в календарный план прививок. Идет массовая цифровизация медицины, а так же активно развивается телемедицина. Я как будущий врач в ногу со временем работаю над собой, с жадностью изучая медицинскую литературу. Оттого насколько образована девушка, женщина, как сказал наш уважаемый президент Шавкат Мирзияев, зависит воспитание ребёнка в семье, будущее здорового и образованного поколения нашей страны.

Когда я училась в школе на уроках литературы и узбекского языка мы ознакомились с поэзией Зульфии Ханум. Тогда она меня очень впечатлила, мне стало интересно узнать о её судьбе и творчестве больше. В процессе изучения её биографии я узнала о том, что в нашем государстве присуждается премия в честь этой замечательной женщины – поэтессы. С тех пор моей целью было стать обладательницей премии Зульфии Ханум. И вот, в канун торжества международного женского дня 8 марта. Президент нашей страны Шавкат Мирамонович лично вручил всем обладателям государственную премию имени Зульфии. В их ряду была и я. Конечно, этой награды я удостоилась благодаря руководству и всему коллективу преподавателей нашего ВУЗа.

В заключении хочется сказать, студентам медицинского института, «Ребята, надо не просто зубрить азы школьной науки, но и продумывать и анализировать основательно смысл каждого изучаемого тобою предмета, темы материала. Ведь чтобы стать специалистом в сфере медицины, прежде всего надо ещё и любить людей. Эта любовь и забота пробудит осознание на сколько важна человеческая жизнь и здоровье. Так давайте же мы будем достойны наших великих учёных средневековья».

**Гузаль Исомадинова  
студентка 420 группы  
Лечебного факультета**

## MUVFAQQIYAT SIRLARI

Farzand uchun oila bu - katta mактаб. Oilada shakllangan yaxshi muhit ertangi kun ya'ni kelajakning negizidir. 6-kurs talabasi Laylo Jabborovadan shifokor bo'lish orzu si haqida so'raganimizda u bobo va buvisining shu soha vakillari ekanligini, ular tufayli nabirada bu kasbga muhabbat uyg'onganini aytди. Laylo bolalikdanoq buvisini o'zi uchun ideal insoni deb bilgan, ularga havasda bo'lган. U mana shu havasi bois, ToshPTI ning Davolash ishi fakultetiga o'qishga kiradi. Yosh talaba qiz institutga kelgan ilk kunidanoq o'zini tibbiyot sohasining bir bo'lagi, bemorlarning jismiga-yu ruhiga malham, asl shifokor bo'la olishiga ishontirgan. Psixologlarning jo'yali maslahatlari bor: Insonga eng kuchli ruhshunos ham, eng katta motivator ham o'zidir. Laylo o'zi rejalashtirgan muvfaqqiyatlariga erisha olishidagi jasoratni kelajakka qo'ygan orzu va maqsadlaridan oлган. Yillar davomida egallangan bilimlar, o'ргangan amaliyat saboqlari sababli 2022-yil noyabr oyida o'tkazilgan "Tibbiyot mohirlari" olimpiadasining 2-o'rинг'olibligiga loyiq topildi. "G'oliblar qatorida ismim yangrar ekan, Yaratgan menga shunday mukofotni nasib aylaganidan juda ham sevindim", - deydi, u ko'zlarida quvonch



bilan. Tanlov Laylo uchun qimmatli tajriba manbayi bo'ldi desak adashmaymiz. Sababi talabamiz olimpiada tayyorgarlik jarayonida kasbiy ko'nikma va malakalarini yanada rivojlanirishga, o'z faoliyatiga doir ilmlarni chuqurroq o'zlashtirishga erisha oldi. Shunday mas'uliyatlardamlarda shogirdiga katta yordam bergen ustoz, Nodira Hakimovna ning ham bu g'alabada xizmatlari beqiyos. Laylo yaqin kelajakdagimaqsadlari to'g'risida gapirar ekan tanlagan yo'nalishi - akusherlikni tubdan o'rganayotgani hamda mam-lakatimizda onalar va bolalar o'limini kamaytirish, sog'lom farzandlarning

dunyoga kelishida salmoqli hissa qo'shishni niyat qilayotganini aytib o'tdi.


Bugun oliyohoda ta'lim olayotgan har bir yosh avlod vakili ham Laylo Jabborova singari, o'z yo'lini tanlab oлган, ko'zlagan marrasiga yetishish uchun harakat qilayotgan bo'lsa ne ajab. Zeroiki yoshlikda olin-gan bilim toshga o'yilgan naqshdir. Donolarning bu ibratli gaplari bejiz aytilmagan. O'z ustida samarali mehnat qilgan, yangi bilim va ko'nikmalarni yuksak salohiyat bilan o'ргangan insonlar jamiyatda alohida mavqe va e'tiborda bo'lishadi.

*Marhabo Abduxamidova*

## ADABIYOT VA TIBBIYOTNING ILDIZI BIR

Biz bugun bo'lib o'tgan "Badiiy adabiyotda tibbiyot" darsimizda tibbiyotga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan buyuk allomamiz Ibn Sino haqidagi rivoyatlar, shuningdek xalq og'zaki ijodining boshqa janrlarida tibbiy mavzu haqida gaplashdik. Tibbiyotni har bir folklor janridan topish mumkinligi meni hayron qoldirdi. Kichkinligimizdan eshitgan "Egri va to'g'ri", "Ur to'qmoq", "Yoriltosh" ertaklarida ham tibbiy lavhalar mavjud. Albatta-da, axir adabiyot va tibbiyotning ildizi bir. Adabiyot inson ruhiyatini davolaydi. Biz uni bilişimiz bemorlarni davolashimizda qo'l keladi.

*Asilbek Iminjonov,  
II pediatriya fakulteti 203-guruhan talabasi*



## RIVOYATLARDA TIBBIYOT AKSI

Biz “Badiiy adabiyotda tibbiyot afsona doston va rivoyatlarda Abu Ali ibn Sino obrazi” mavzusini o’tdik.

Dars jarayonida ibn Sino ning buyuk tabib, kuchli aql zakovatga egasi ekanligini isbotlovchi turli xil rivoyatlar bilan tanishdik. Berilgan mandaalarda ibn Sino bemorlarning harakatlari, tashqi ko’rinishiga qarab aniq tashxis qo’yanligi bizni qiziqtirdi. Hattoki arqon ushlab turgan odamning pulsini sezib uning kasalligini aniqlagani ibn Sinoning naqadar yuskak zehnga ega ekanligining isbotidir. Bu rivoyatlardan ruhlanib, guruhimiz bilan ibn Sinoni sahnnaviy ko’rinishlarda jonlantirdik. Sahnalarimizda buyuk tabib yuz, til ko’rinishlari va toshmalarga qarab tashxis qo’ydi. Buning uchun

zarur ma’lumotlar qidirib topdik. Masalan, tilning oq – kulrang karashga kirishi va biroz shish moddalar almashinuvining buzilishidan, ko’k tusli til yurak qon tomir kasalliklari, tildagi sariq karash o’t pufagida safro ko’pligi, tilni qoplagan oq karash oshqozon kislotasi pastligi, disbakteriozdan, och kulrangli karash bo’g’ma, bo’zargan rangli til kamqonlik, malina rangli til zotiljam, isitma ko’tarilishi, zaharlanishdan, til titrashi bosh miya kasalligi, til og’rishi insult alomati hisoblanadi.

Yuzdagagi toshmalar ham qaysi a’zolar kasalligini ko’rsatib beruvchi belgilar hisoblanadi. Iyakdagagi toshmalar – endokrin tizimidagi buzilishlar, chap lunjdagi toshmalar – jigar bilan bog’liq kasalliklar,

o’ng lunjdagi toshmalar – buyraklar yaxshi ishlamasligi, lab atrofidagi toshmalar – ich qotishi, burundagi toshmalar – yurak qon tomir kasalliklaring alomati hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino haqidagi og’izdan-og’izga o’tayotgan rivoyatlarni o’rganishimiz orqali biz yoshlarning tibbiyotga bo’lgan qiziqishimiz yanada ortmoqda. Shu kabi rivoyatlar o’z navbatida aholining ham tibbiyot haqidagi bilimlarini yanada oshirishga kasalliklarning oldi olinishiga sabab bo’ladi. Bu esa badiiy adabiyotning tibbiyotdagisi o’rni qanchalik muhim ekanligidan darak beradi.

*Sevara Raxmatullayeva,  
II pediatriya fakulteti  
201-guruhi talabasi*

## O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

*Professor-o’qituvchilar tarkibi bo’yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e’lon qiladi:*

**KAFEDRA MUDIRI:** Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi.

**PROFESSOR:** Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi.

**DOTSENT:** Tibbiy va biologik kimyo, tibbiy biologiya, umumiyligi genetika

**KATTA O’QITUVCHI:** Anatomiya patologik anatomiya; Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya.

**ASSISTENTLAR:** Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Jamoat salomatligi va sog’liqni saqlashni tashkil qilish va boshqarish; Umumiy xirurgiya, topografik anatomiya va operativ xirurgiya asoslari; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya; Xirurgik kasalliklar;

**Tanlov muddati – e’lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog’ishamol ko’chasi 223, Tosh PTI.**

**Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekat. 18.03.2023.**



**Tahrir kengashi:**  
D.A. Asadov, A.V. Alimov,  
X.F. Haydarov, M. Ahmedova,  
K.N. Haitov, S.S. Gulyamov,  
D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev,  
S. Nurxodjayev A. Valiyev,  
A. Nosirov, D. Choriyeva,  
**Nashr uchun mas’ul:**  
M. Abdurahimova

**Bosh muharrir:**  
B.T. DAMINOV  
Tahrir hay’ati:  
(ishchi guruh)  
E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva  
**(Bosh muharrir o’rinbosari),**  
A.M. Mannonov,  
D.A. Ahmedova, H. Rasulov  
S.A. Begmonov, H. Abidov,  
Z. Karimova, A. Xudayberdiyev

Gazeta Toshkent shahar matbuot va  
axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil  
02-0010-son bilan ro’yxatga olingan.  
Manzil: 700140, Toshkent-140,  
Bog’ishamol ko’chasi, 223  
“XALQ NASHRIYOTI” XKda chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh., Qorasaroq ko’chasi, 316 uy.  
Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02.  
buyurtma adadi 110 nuxsa, qog’oz bichimi A3.  
Gazeta institut hisobidan nashr etiladi  
va bepul tarqatiladi.